

LINGVISTIKA VA POETIKA SOHASIGA OID TUSHUNCHALAR MOHIYATI

Samandarova Lobar Pahlavon qizi

Buxoro davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi
2- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvistika va poetika atamalarini izohi, shuningdek ushbu sohalarda olib borilgan bir qancha tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlari va qarashlari o‘rganilgan. Lingvistika atamasining qadimgi davrda rivojlanishi va taraqqiyoti atroflicha izohlangan. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. *Lingvistika, poetika, til, lingvistik qarashlar, poetik qarashlar .*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются толкования терминов лингвистика и поэтика, а также научные исследования и взгляды ряда учёных-лингвистов, проводивших исследования в этих областях. Подробно освещаются развитие и становление термина «лингвистика» в древние времена. Наряду с этим раскрываются её место и значение в современном узбекском языкознании.

Ключевые слова. *лингвистика, поэтика, язык, лингвистические взгляды, поэтические взгляды.*

ABSTRACT

This article examines the definitions of the terms linguistics and poetics, as well as the scientific research and views of several linguist scholars who have conducted studies in these fields. The development and evolution of the term “linguistics” in ancient times are explained in detail. At the same time, its role and significance in modern Uzbek linguistics are highlighted.

Keywords: *linguistics, poetics, language, linguistic views, poetic views.*

KIRISH

“Lingvistika” — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandir. Til - nutq tuzib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa ¹.

¹ Uloqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma.- T: Barkamol avlod media,2016.-192 b.

Tilshunoslik masalalarini tadqiq etish faoliyati dastlab Qadimgi Hindistonda boshlangan. Bu yerda tilshunoslik, miloddan avvalgi 6-asrdan oldin yaratilgan bilimlarni til jihatdan izohlash natijasida shakllangan va miloddan avvalgi 5–4-asrlarda yashagan Panining grammatik asari tufayli yuqori rivojlanish bosqichiga yetgan. Ushbu asar nazm shaklida yozilgan bo‘lib, unda 3996 ta qoida mavjud va sanskrit tilining fonetikasi hamda grammatikasi batafsil tavsiflangan. Qadimgi Yunonistonda esa til tadqiqi asosan mantiqqa bog‘liq holda amalga oshirilgan va uning grammatik tuzilishi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Bu boradagi fikrlar Geraklit va Demokrit, shuningdek Platon va Aristotel asarlarida ifodalangan.

O‘rta asrlarda tilshunoslikning rivoji ko‘p jihatdan arab tiliga va arab tilida ilmiy ishlar qilgan, ammo arab bo‘lmagan filologlar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan. Arab tilshunosligining rivojida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Zamaxshariy, Javhariy kabi O‘rta Osiyolik olimlarning ham ulkan hissasi bo‘lgan. Ibn Sino tovushlarni fonema darajasida tahlil qilgan bo‘lsa, Javhariy, Koshg‘ariy va Zamaxshariy leksikologiya va leksikografiya sohalarida tilshunoslikka muhim yangiliklar olib kirganlar. Mahmud Koshg‘ariy va Zamaxshariy o‘z asarlari — “Devonu lug‘otit-turk” va “Muqaddimat ul-adab” orqali turkiy lahjalarni va boshqa til oilalariga mansub tillarni qiyoslash, shuningdek, qiyosiy-tarixiy metod va tipologik yondashuvdan foydalangan birinchi tilshunoslar sifatida tarixda nom qoldirishgan.

Ushbu sohaning rivojlanishiga Fitrat, K. Ramazon, Otajon Hoshim, S. Ibrohimov, Olim Usmon, Z. Ma‘rufov, Faxri Kamol, A. G‘ulomov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurag‘monov, G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov, M. Asqarova, X. Doniyorov, Sh. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, E. Begmatov kabi mahalliy olimlar ham salmoqli hissa qo‘shganlar. Shuningdek, rus tilshunoslaridan Ye. D. Polivanov, A. K. Borovkov, K. K. Yudaxin, A. N. Kononov, A. M. Shcherbak hamda V. V. Reshetovlarning ilmiy ishlari ham o‘zbek tilshunosligi shakllanishi va rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Shulardan biri Abdurauf Fitratning o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi o‘rnini alohida ta‘kidlash lozim. Uning eng muhim xizmatlaridan biri — o‘zbek tilining milliy grammatik asoslarini yaratganidadir. XX asrning 20-yillarida o‘zbek tiliga oid ilmiy manbalar nihoyatda kam edi. O‘sha davrda maktablarda ona tili sifatida usmonli turk tili o‘qitila boshlagan, natijada tilimiz grammatikasi ham mazkur til ta‘siriga tushib qolgan edi.

Zamonaviy o‘zbek tilshunoslik ilmi ham aynan o‘tgan asrning 20-yillarida tilining ichki tabiati va o‘ziga xos qonuniyatlariga tayangan holda milliy grammatika konsepsiyasini ishlab chiqdi. shakllana boshlagan bo‘lib, uning poydevorini Fitrat

bilan bir qatorda Elbek, Munavvarqori, Qayum Ramazon, G‘ozi Olim, Sh. Zunnun kabi ma‘rifatparvar olimlar qo‘yganlar. Ular yaratgan ilmiy meros bugungi tilshunosligimiz uchun muhim manba va asos vazifasini o‘taydi.

Fitratning lingvistik qarashlari bilan tanishgan tadqiqotchi uning qo‘llagan ilmiy tushuncha va atamalari hozirgi tilshunoslik terminologiyasiga ancha yaqin ekanini ko‘rishi mumkin. Xususan, «Tanlangan asarlar»ning IV jildidan o‘rin olgan «Tilimiz – I», «Tilimiz – II», «Tilimizning adabiyliigi», «Muqaddimat ul-adab», «O‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba» (Birinchi kitob: «Sarf»), hamda (Ikkinchi kitob: «Nahv») nomli asarlarida qo‘llangan tilshunoslik terminlarini tahlil qilar ekanmiz, ularda zamonaviy ilmiy atamalarga o‘xshash va ayrim jihatlari bilan farqlanuvchi qariyb 270 ga yaqin termin mavjudligini kuzatish mumkin. Bu esa Fitratning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini yana bir bor tasdiqlaydi. Fitratning ”Sarf” deb nomlanuvchi kitobi muqaddimasida osha davrdagi o‘zbek tili haqida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Bizning til, adabiyotimizning eng so‘ngi kunlari Farg‘onali Umarxon zamonida edi. Til, adabiyotimiz Umarxon paytida yashnab ko‘tarildi-da, undan keyin sekin-sekin pasaya boshladi. Bora-bora yiqilishning, yo‘qolishning eng og‘ir, eng qora daqiqalarini boshidan o‘tkazdi. Ozgina paytdanso‘ng Turkistonda yetishgan yarim shoirlar, yarim yozg‘uchilarni esa, eski adabiyotimizning so‘ngi so‘lmishlari deb ko‘rsatmoq yanglish bir ish bo‘lmaydir. Bularning qalamlari va undan to‘kilgan jumlalar buzuq so‘zlar, siniq fe‘llar qaranglig‘ bo‘lib chiqa boshladi”². Asardan olingan mazkur parchada muallif o‘sha davr o‘zbek tilshunosligi og‘ir va qoniqarsiz holatga kelib qolganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, til tizimida aniq va mustahkam grammatik me‘yorlar shakllanmagan edi. Ilm ahli ham o‘z asarlarini muayyan qoida va tartiblarga rioya qilmasdan, o‘z bilganicha yozar edi. Shuningdek, yozuvchi va shoirlar o‘zbek tili lug‘at boyligida mavjud bo‘lmagan forscha hamda arabcha so‘zlarni asarlarida noto‘g‘ri va chalkash shaklda qo‘llashgan. Buning oqibatida keng kitobxonlar ommasi matnlarda ishlatilgan tushunarsiz iboralar sabab asar mazmunini to‘liq anglay olmagan. Muallif ana shunday murakkab va nochor vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlab, muayyan xulosaga keladi. U o‘zbek adabiy tilini qat‘iy me‘yor va qoidalarga asoslangan grammatika bilan tartibga solish zarurligini ilgari suradi. Shu asosda yosh avlodga maktablarda puxta va tizimli ravishda ta‘lim berish masalasini dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatadi.

O‘tgan asrning eng buyuk shoiri, yozuvchisi, g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyandasi, balki

² Абдурауф Фитрат. Танланган асарлари. 5 жилд.-Т. Маънавият, 2006. -140 б .

tilshunoslik yo‘nalishida ham ulkan ilmiy meros yaratgan mutafakkir sifatida tan olinadi. Navoiy ijodida tilning cheksiz imkoniyatlari, uning boy lug‘aviy xazinasida hamda ifoda salohiyati xususida teran ilmiy-badiiy mulohazalar mujassam. Uning ”Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ikki til — turkiy va forsiy tillarni qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, shu bilan birga umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan ham betakror manba hisoblanadi. Mazkur asarda tillarning fonetik xususiyatlari, lug‘aviy boyligi hamda grammatik tuzilishi tahlil qilinib, nazariy qarashlar asosli tarzda bayon etilgan. Bundan tashqari, Navoiy boshqa asarlarida ham tilning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, nutq madaniyati, adabiy til me‘yorlari hamda so‘z qo‘llash mahorati yuzasidan dolzarb va ahamiyatli fikrlarni ilgari suradi.

Abdulla Avloniy ham jadidchilik harakatining yetuk namoyandaligidan bo‘lib, tilshunoslik sohasida salmoqli iz qoldirgan olimlardan sanaladi. U o‘zbek adabiy tilining yozma ko‘rinishini yangilash va zamon talablari asosida takomillashtirishga intilgan. Shu maqsadda turli lug‘atlar, grammatika qo‘llanmalari hamda til masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni yaratgan. Avloniy o‘zbek tilini lotin yozuviga o‘tkazish g‘oyasini ilgari surib, bu orqali til taraqqiyotini tezlashtirish va uni ilmiy mezonlar asosida rivojlantirish mumkinligini ta’kidlagan. Uning tashabbuslari nafaqat o‘zbek tilining yuksalishiga, balki boshqa turkiy tillar bilan yaqinlashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Jadid ma’rifatchilarining tilga oid qarashlari va ilmiy yondashuvlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning ishlari zamonaviy tilshunoslik nazariyasi hamda ta’lim tizimining shakllanishida muhim manba vazifasini bajarib kelmoqda. Jadidlarning til siyosatiga doir konsepsiyalari o‘zbek tilining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvi, uning izchil rivoji va milliy tafakkurning mustahkamlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Lingvistik qarashlar davom etar ekan, shu xususda X. G‘ulomning ham ba’zi fikrlari diqqatga sazovordir: “ Til ustidagi ish yozuvchi ijodining tub asosidir. Mavzu tanlangach, maqsad aniqlangach, qamonlar, ularning portretlari va xarakterlari lo‘nda tasavvur etilgach, adib qo‘liga qalam olib, asarni boshlar ekan, so‘z ustaidagi davomli, mashaqqatli, benihoya ish boshlanadi. Bu ishda yozuvchining bisoti – uzoq yillar davomida yig‘ib to‘plagan so‘z xazinasidan u qunt bilan jumla shodalari teradi. O‘y-fikrdagi boylik ham , yozuv stollaridagi yashirin yon daftarlar ham ishga tushadi. So‘z kerak! Yangi, ohori to‘kilmagan, voqeaga, qahramon ichki dunyosiga, uning nozik fe’l- atvorini ochishga xizmat qiladigan, o‘quvchini daf’atan hayratga solib qo‘yishga qodir so‘z kerak! ... O‘z asariga tilning kalitini topa bilgan yozuvchi o‘z uslubida ravon ijod qila oladi. Dunyoda til yaratishdan murakkab san’at yo‘q”³.

³ Гулом Х. Давр кўзгуси. (бадий тил муаммолари) // Шарк юлдузи, 1985.-171-172 б.

Demak, ijodkorning bir asardan boshqasiga o'tgan sari mahorati yuksalib borishi, o'z ustida muntazam ishlash jarayonining asarlarida aks etishi, shuningdek, adib hamda uning ijod mahsullarining adabiyotdagi mavqei kabi masalalarni lingvopoetik tahlil asosida tadqiq etish ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik sohalarida ushbu muammoning samarali hal etilishiga xizmat qiladi.

“Poetika” so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “ijod qilish san'ati” ma'nosini bildiradi. Poetika adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fandır. Darhaqiqat, poetika tushunchasi nihoyatda keng va serqirra mazmunga ega. Poetika adabiyotshunoslik atamasi sifatida birinchi antik davrning yetuk faylasuflari Aflotun va Arastu ta'limotida, keyinroq rimlik olim Goratsiy asarlarida uchraydi. Shu bilan birgalikda Qadimgi davrlardayoq bu masalaga Aristotel alohida e'tibor qaratib, o'zining “Poetika” asarini yaratgan. Ushbu risolada u badiiy ijod, xususan, she'riy tur va janrlar xususida fikr yuritib, poetikani poeziya san'ati sifatida talqin etadi. Ko'plab ilmiy manbalarda mazkur asar poetika ilmining dastlabki nazariy poydevori sifatida baholanadi.

Asarda san'atning bosh mezoni borliqni tasvirlash ekani, uning asosiy vazifasi esa insonni tarbiyalash va ma'rifiy ta'sir ko'rsatishdan iboratligi ta'kidlanadi. Shuningdek, “poetika” atamasi bu yerda keng ma'noda — badiiy adabiyot nazariyasi, ya'ni adabiyotshunoslik sohasi mazmunida qo'llanadi. Bundan tashqari, adabiyotning yetakchi turlari sifatida epos, lirika va drama ajratib ko'rsatiladi hamda tasviriy usullar, janr xususiyatlari, syujet qurilishi kabi nazariy masalalar atroflicha yoritiladi.

O'rta asrlarga kelib esa “poetika” termini asosan she'riyat nazariyasi, badiiy nutqni bezash vositalari va ifoda usullarini o'rganuvchi adabiyotshunoslik yo'nalishiga nisbatan ishlatila boshlagan.

Lingvopoetika sohasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan tilshunos R.Yakobsonning “Poetika masalalari” asarida quyidagi jumlanı keltiradi: “Poetika – bu verbal axborotlarning, umuman, poetik funksiyasini va, xususan, poeziyani lingvistik tadqiq etishdir”⁴.

V.Vinogradov “Stilistika. Poetik nutq nazariyasi. Poetika” asarida esa tilshunoslik va adabiyotshunoslik hamda san'atshunoslik sohalarining birlashishini va ba'zi jihatlarini aytib o'tadi: “Poetika poetik nutqqa suyanar va bir qadar unga asoslanar ekan, adabiy asar struktural elementlarining sof lingvistik tahlil vositalari va prinsiplari bilan chegaralanib qolishi, faqat badiiy ijodiy qurilishning tili va nutqiga aloqador bo'lgan kategoriya va shakllarga o'ralashib qolishi mumkin emas. U badiiy ijodning san'atshunoslik va adabiyotshunoslikning umumiy nazariyalari

⁴ Якобсон Р. Поэтика масалалари. И.Мирзаев таржимаси.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2004, -Б.9.

hamda tushunchalari bilan boyib boradi. Shunday qilib, poetika doirasida adabiy-badiiy asarlar strukturasi o'rganishning ham lingvistik, ham estetik-stilistik, ham adabiyotshunoslik hamda san'atshunoslik usullari birlashadi⁵.

Tilshunos B.V.Tomashevskiy esa "Poetika o'z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o'rganishda ko'radi. Poetikaning o'rganilish ob'ekti – badiiy adabiyot. O'rganish usuli esa – hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat" deb yozadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek filologiyasi tarixida poetika bilan bog'liq dastlabki kuzatishlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarlaridan boshlangan. She'r nazariyasining taraqqiy etishida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Mezon ul-avzon", shuningdek, Boburning "Muxtasar" asarlari alohida ahamiyat kasb etgan. Keyingi davrlarda adabiyot va san'atning yuksak badiiy saviyasi hamda g'oyaviy mukammalligi uchun olib borilgan izlanishlar jarayonida o'zbek adabiyotshunoslari ham poetika masalalarini chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratdilar. Navoiy ijodining poetika jihatlarini tadqiq etishda V. Zohidov, M. Shayxzoda, A. Hayitmetov, Yo. Isoqov va boshqalarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor romanlarining poetika xususiyatlarini o'rganishda M. Qo'shjonov, U. Normatov kabi olimlarning izlanishlari, o'zbek she'riyati poetikasi bo'yicha esa O. Sharafiddinov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari katta ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA

Lingvistika ham poetika ham so'z bilan ishlaydi va lingvistika tilimizdagi barcha so'zlarni qamrab olsa, poetika esa ular orasidan faqat badiiy asar uchun mos keladiganlarini saralab oladi. Tilning poetik funksiyasi badiiylik mezonlari orqali, badiiy funksiyasi estetik xususiyatlar yordamida, estetik funksiyasi esa hissiy hamda aqliy idrok tamoyillari asosida namoyon bo'ladi. Qaysi janrga mansub asar bo'lishidan qat'i nazar, unda, eng avvalo, badiiylik qonuniyatlari mujassam bo'ladi (nazmda ohang va qofiya uyg'unligi, nasrda bayon etish uslubi, drama janrida esa harakat bilan so'zning mutanosibliigi). Har qanday badiiy asarda go'zallik va nafosat unsurlari mavjud bo'ladi (she'riy asarlarda muallifning ichki kechinmalari, nasriy va dramatik asarlarda esa qahramonlarning ruhiy holatlari aks etadi). Shuningdek, har bir badiiy matnda obrazlilikni yuzaga chiqaradigan va xarakterni ochib beradigan so'z — bu hissiyot va tafakkur mahsuli hisoblanadi.

⁵ Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М.,1969, -С.185.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uloqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma.- T: Barkamol avlod media,2016.-192 b.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлари. 5 жилд.-Т. Маънавият, 2006. -140 б .
3. Гулом Ҳ. Давр кўзгуси. (бадий тил муаммолари) // Шарқ юлдузи, 1985.- 171-172 б.
4. Якобсон Р. Поэтика масалалари. И.Мирзаев таржимаси.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2004, -Б.9.
5. Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М.,1969, -С.185.